

---

## Farg'ona shahrida aholi dam olish imkoniyatlari hamda ichki turizm ko'lamini kengaytiriladi

Viloyat hokimi Xayrullo Bozorov, bugun Farg'ona shahrining Qirguli mavzesida bo'lib, "Do'stlik uyi"dan (sobiq Madaniyat saroyi) Farg'ona neftni qayta ishlash zavodigacha bo'lgan oraliqdagi xiyobonni obodonlashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar bilan tanishdi.

Viloyat rahbari shuningdek, Qirguli sport-baliqchilik xo'jaligi sifatida foydalanib kelinayotgan ko'lni zamonaviy turistik xizmatlar bilan boyitilgan cho'milish va dam olish zonasiga aylantirish, Surhtepa MFY hududidagi xonadonlardagi so'rilardan iborat dam olish joylarini umumiy kontseptsiyaga birlashtirib, mahallada ichki turizm uchun sharoitlarni yaxshilash masalalarini joyida muhokama qildi.

2022-11-19 20:47:24